



KONSTITUTSIYANING RIVOJLANISH TARIXI

Shokirov Farruxbek Odiljon o‘g‘li

Sirdaryo viloyati Qo‘riqlash boshqarmasi Xizmatni tashkil etish va muvofiqlashtirish bo‘limi katta inspektori, katta leytenant telefon:+998997079044 farruxbekshokirov94@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda konstitutsiyaning kelib chiqishi va uning rivojlanish tarixi, Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgarishlar va ularning ahamiyati, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilish bosqichlari, konstitutsiyaviy tamoyillar va unga kiritilgan o‘zgartirishlar haqida so‘zboradi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, konstitutsiyaviy komissiya, konstitutsiya loyihas, konstitutsiyaviy tamoyillar, konstitutsiyaviy islohotlar.

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ КОНСТИТУЦИИ

Шокиров Фаррухбек сын Одилжона

Старший инспектор Отдел организации и координации службы Управление охраны Сырдарьинской области, старший лейтенант

Аннотация: В данной дипломной работе говорится о зарождении конституции и истории ее развития, Изменения, внесенные в Конституцию и их значение, этапах создания Конституции Республики Узбекистан, конституционных принципах и изменениях к ней.

Ключевые слова: Конституция, конституционная комиссия, проект конституции, конституционные принципы, конституционные реформы.

HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF THE CONSTITUTION

Shokirov Farrukhbek son of Odiljon

Senior Inspector Servis organization and coordination department Security Department of Syrdarya region, Senior lieutenant

Annotation: This thesis talks about the origins of the constitution and the history of its development, Changes made to the Constitution and their significance the stages of creation of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, constitutional principles and amendments to it.

Key words: Constitution, constitutional commission, draft constitution, constitutional principles, constitutional reforms.

To‘la ishonch bilan aytish mumkinki, o‘zbekiston respublikasining konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo‘lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo‘lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan

huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish borasida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

SH.M.Mirziyoyev

Konstitutsiya (lotincha "Constitutio"- o'rnatish, belgilash) – davlatning asosiy qonuni. U mamlakatning ijtimoiy va huquqiy, siyosiy hayotini tartibga soluvchi asosdir. Tarixda konstitutsiyalar davlatlarning rivojlanish bosqichlarida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlarga javob sifatida shakllangan.

Konstitutsiyaning ilk shakllari Qadimgi Rim jamiyatida paydo bo'lgan. Aristotel singari faylasuflar jamiyat boshqaruvi uchun umumiyligini qoidalar belgilash g'oyasini ilgari surishgan. O'rta asrlarda Amir Temurning "Temur tuzuklari" kitobi Markaziy Osiyo va unga tutash g'arbiy hududlarda islom shariati qoidalari bilan bir qatorda jamiyat hayotiga kuchli ta'sir o'tkazgan "konstitutsiyaviy hujjat" hisoblangan.[1]

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi — mamlakatning asosiy qonuni bo'lib, unda davlatning siyosiy tizimi, huquqiy asoslari va fuqarolarning huquqlari belgilangan. Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishlar mamlakatning ichki va tashqi siyosatini, shuningdek, fuqarolarni himoya qilish va davlat boshqaruvini takomillashtirishga yo'naltirilgan. Shu sababli, Konstitutsiyadagi har qanday o'zgarishlar muhim huquqiy, siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega.

Fuqarolarning huquqlarini himoya qilish: O'zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgarishlar orqali fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari kengaytirildi.

Masalan, Konstitutsiyaning yangi tahririda, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha qat'iy kafolatlar ta'minlangan.

Bu o'zgarishlar davlat organlarining fuqarolar huquqlariga hurmat ko'rsatish majburiyatini oshiradi.

Demokratik jarayonlarning kuchayishi: O'zbekistonning siyosiy tizimini liberallashtirishga yo'naltirilgan o'zgarishlar, mamlakatda demokratik qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, parlamentning vakolatlarini oshirish, mustaqil sud tizimining faoliyatini takomillashtirish kabi o'zgarishlar davlat boshqaruvi tizimini yanada samarali va xalq ishonchini qozonadigan darajaga olib chiqadi.

Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishlar, shuningdek, O'zbekistonning tashqi siyosatida mustahkamligini oshirishga xizmat qiladi. Yangi Konstitutsiya mamlakatning xalqaro munosabatlarini rivojlantirish va tashqi siyosatdagi mustahkam pozitsiyalarni yaratishga qaratilgan.

Bunda, xalqaro huquq me'yorlariga mos keluvchi yondashuvlar muhim o'rinni tutadi. Konstitutsiyadagi o'zgarishlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga yo'naltirilgan, chunki yuridik tizimning mustahkamlanishi va davlat boshqaruvining samaradorligi iqtisodiyotni rivojlantirishga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi.

O'zgarishlar ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishlar davlat boshqaruvining yangi tizimini shakllantiradi.

Prezidentning vakolatlari, parlament va hukumat o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, mahalliy boshqaruv tizimini kuchaytirish kabi islohotlar demokratik



boshqaruvni ta'minlashga xizmat qiladi. Konstitutsiyadagi o'zgarishlar terrorizm, ekstremizm va boshqa xavf-xatarlar bilan kurashishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga yordam beradi. Bunda, xavfsizlikni ta'minlash va jamiyatda barqarorlikni saqlash uchun yangi normativ me'yorlar joriy etiladi.[2]

Bugungi kundagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qadimgi shu o'lkalarda hukm yuritgan Sog'diyona, Xorazmshohlar, Qoraxoniylar, Temuriylar, o'zbek xonliklari va jadidlarimizning ko'p yillik mustaqil va rivojlangan davlat qurish haqidagi g'oyalarini mujassamlashtirgan bosh qonundir.

Undan tashqari Konstitutsiya xalqimizning manfaatlaridan kelib chiqqan holda dunyoning 97 mamlakatining konstitutsiyaviy tajribalaridan kelib chiqib yaratilgandir.[3]

Konstitutsiyamizning yaratilishi jarayonidagi ilk qadam bu o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishidir.

O'z tilini bilmaydigan millat taraqqiyot ostonasiga qadam qo'yolmaydi. 1989-yil 21-oktyabr kuni o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun biz uchun unutilmas voqeа bo'lib qoladi. O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan 1990 yil 20 iyunda e'lon qilingan "Mustaqillik deklaratasiyasi" o'z konstitutsiyamizga ega bo'lishimizda yana bir qadam bo'lib xizmat qildi.

Oliy Kengash qarori bilan 1990-yil 21-iyun kuni O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.Karimov boshchiligidagi arboblar, mutaxassislar va deputatlardan iborat 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy komissiya tuzildi.

Ushbu komissiya tomonidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasi 2 yil mobaynida tayyorlandi. 1992-yil 26-sentyabr kuni Konstitutsiyaning ilk loyihasi matbuotda chop etildi. Komissiyaga fikr va mulohazalar bildirilgan 600dan oshiq xat kelib tushdi. Fuqarolarimiz tomonidan takliflar soni 5 mingdan oshib ketdi. Kelib tushgan takliflar asosida kerakli tuzatish va o'zgartirishlar kiritilganidan so'ng Konstitutsiya loyihasi ikkinchi marotaba matbuotda 1992-yil 21-noyabr kuni chop etildi.

Qator muhokamalardan so'ng 1992-yil 8-dekabr kuni o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida Parlament deputatlari tomonidan Bosh qomusimiz qabul qilindi.

Bu hujjat mustaqillik e'lon qilingandan so'ng davlatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kash etdi. Konstitutsiya qabul qilish jarayonida xalqaro tajribadan foydalananilgan bo'lsa-da, uning asosiy tamoyillari O'zbekistonning o'ziga xos tarixiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlariga moslashtirildi.

O'zbekiston Konstitutsiyasida quyidagi asosiy tamoyillar aks etgan:

Davlat suvereniteti va mustaqilligi;

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash;

Demokratiya, qonun ustuvorligi vaadolat prinsiplariga asoslangan boshqaruv;

Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash;

Konstitutsiyaviy islohotlar va ularning ahamiyati.

O'zbekiston Konstitutsiyasida so'nggi yillarda bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. 2023-yilda konstitutsiyaga kiritilgan islohotlar fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, inson huquqlari va erkinliklarini mustahkamlash, davlat boshqaruvini samaraliroq qilishga qaratilgan.



Ushbu islohotlar jamiyatning rivojlanishi va zamonaviy ehtiyojlariga moslashish uchun zarur bo'ldi.

Konstitutsiyaviy taraqqiyot tarixi davlatlarning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi asosiy burilish davrlarini aks ettiradi. O'zbekiston Konstitutsiyasi mamlakatning mustaqillikni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadamlaridan biri hisoblanadi. Uni takomillashtirish orqali O'zbekiston yanada demokratik, huquqiy va adolatli jamiyat qurish sari rivojlanishda davom etmoqda.

Maqola yakunida, fuqarolar o'z konstitutsiyasini chuqur o'rghanishi va unga amal qilishi davlat va jamiyatning barqarorligi uchun muhim ekanligini ta'kidlash joiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023 yil
2. https://constitution.uz/oz/pages/Konstitusiyamizning_yaratilishi
3. <https://lex.uz/mact/-41098>